



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i06.032>

MILLIY HUNARMANDCHILIKNI O'RGANILISHI TARIXI

Botirov Javlonbek Tilavoldiyevich

Andijon davlat texnika instituti

“Tillar va gumanitar fanlar” kafedrası assistenti

Email: botirovjavlonbek24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy hunarmandchiligining o'rganilish tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada hunarmandchilikni sovet davridagi xolati, uning rivojlanishi uchun to'siqlarning mavjudligi, mustaqillikdan so'ng esa uning rivojlanishiga davlat tomonidan berilgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy hunarmandchilik, Farg'ona vodiysi, Rossiya imperiyasi, O'rta Osiyo, Etnografiya, kulolchilik, to'qimachilik, o'ymakorlik, naqqoshlik

Аннотация. В данной статье представлены сведения об истории изучения узбекского национального ремесленничества. В статье рассматривается состояние ремесленничества в советский период, наличие препятствий для его развития, а также возможности, предоставленные государством для его развития после обретения независимости.

Ключевые слова: национальное ремесленничество, Ферганская долина, Российская империя, Средняя Азия, этнография, керамика, ткачество, резьба по дереву, декоративная роспись.

Abstract. This article provides information on the history of the study of Uzbek national handicrafts. The article discusses the condition of handicrafts during the Soviet period, the obstacles that hindered their development, and the opportunities provided by the state for their advancement after independence.

Keywords: national handicrafts, Fergana Valley, Russian Empire, Central Asia, ethnography, pottery, weaving, wood carving, ornamental painting.

Kirish. Hunarmandchilik jamiyat taraqqiyoti davomida dehqonchilik va chorvachilik tarkibida bo'lib, to'quvchilik, kulolchilik, temirchilik, tosh-taroshlik, zargarlik, duradgorlik, zardo'zlik, ko'ndchilik, o'ymakorlik va boshqa turli xil ixtisosliklarga ajralgan. Shuning uchun ham hunarmandchilik hamma joyda bir tekisda rivojlanmay, dastlab faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab ham taraqqiy etgan. Masalan, sifatli tuproq

bor joyda kulolchilik, jun va teri ko‘p joyda to‘qimachilik va ko‘nchilik, daryo bo‘ylarida kemasozlik rivojlangan. Bu esa har-xil hududlarda turli-tuman hunarmandchilik turlari rivojlanganligiga sabab bo‘lgan. Jumladan qadimdan Farg‘ona vodiysida aholi zich yashaganligi uchun ham bu yerda ko‘plab hunarmandchilik turlari mavjud bo‘lgan.

O‘zbekiston tarixshunosligida yangi bosqichga ko‘tarilish shubhasiz mustaqillik davri bilan bog‘liq. Bizga ma‘lumki, 1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining (hozirgi Oliy Majlis) 12-chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasida bo‘lib o‘tdi va bu sessiyada O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e‘lon qilindi. Ushbu ulkan voqea ilm-fan sohasida tub burilish, yangicha qarash va tarixni qaytadan taftish qilish davrini boshlab berdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy tarixni tiklash, uni xalq e‘tiboriga qaytadan taqdim etish uchun kata maqsad va vazifalar belgilandi.

Tadqiqot metodlari: Bu davr milliy hunarmandchilik tarixshunosligini uch yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi va Sovet davri tadqiqotlari,
2. Mustaqillik davri o‘zbek olimlari tadqiqotlari (1991-2022),

Shuningdek, hunarmandchilik tarixiga oid ilmiy qarashlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida asosan rus tarixchilari, sharqshunoslari va etnograflari asarlarida va qarashlarida mavjud. V.V.Bartold, A.A.Semenov, V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiy kabi ko‘plab olimlar Turkiston xalqlarining madaniyati, shaharsozligi va hunarmandchilik an‘analariga doir ko‘plab muhim ma‘lumotlarni qayd etgan. Ularning orasida Farg‘ona vodiysi haqida ham ma‘lumotlar uchraydi. Sovet davridagi hunarmandchilik masalalari asosan etnografik va iqtisodiy nuqtai nazradan tadqiq etildi. Shuningdek, Sovet davri asarlarida hunarmandchilikning moddiy-texnik tomonini ko‘proq o‘rganilgan, lekin milliy-ma‘naviy qiymatini past qilib ko‘rsatgan. Chunki bu davrda Sovet hukumati o‘lkadan asosan iqtisodiy manfaat olishni maqsad qilishgan. Sovet davrida (1917–1991) O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hunarmandchiligi asosan etnografik, arxeologik va san‘atshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganildi. Bu davrning tadqiqotlari Farg‘ona vodiysini alohida mustaqil ilmiy obyekt sifatida emas, balki umumiy O‘rta Osiyo yoki O‘zbekiston kontekstida ko‘rib chiqqan. Shunga qaramay, ushbu davr ilmiy asarlari dissertatsiya uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar bir necha ilmiy yo‘nalishga bo‘linadi: etnografik, arxeologik, san‘atshunoslik va mintaqaviy tadqiqotlar. Jumladan, A.K.Pisarchik O‘zbekiston bo‘ylab keng etnografik ekspeditsiyalar uyushtirgan va *"Народные мастера Узбекистана"* (1965) asarida o‘z tadqiqotlari natijalarini jamlagan. Mazkur asarda kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik, to‘qimachilik ustalarining ishlash usullari va an‘anaviy texnologiyalari batafsil yoritilgan. Farg‘ona vodiysidagi ustalar ham qisman o‘rganilgan. M.S.Andreyev Toshkent Etnografiya muzeyining asoschilaridan biri bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlari etnografiyasini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Uning *"Таджики долины Хыф"* (1953–1958, 2 jildlik) asarida O‘rta Osiyo xalqlari hunarmandchiligining etnografik tavsifi, shu jumladan ipakchilik va to‘qimachilik an‘analari yoritilgan. Olim Farg‘ona vodiysi

bo‘yicha ko‘plab dala materiallari to‘plab, ularni keyingi tadqiqotchilar uchun asos qilib qoldirgan. G.P.Vasilyeva *"Туркмены-нохурли"* (1954) asarida O‘rta Osiyo xalqlarining an‘anaviy kiyim-kechak va to‘qimachilik madaniyatini qiyosiy o‘rgangan. Mazkur tadqiqotda Farg‘ona vodiysi matolariga qisman murojaat qilingan bo‘lib, mintaqaviy to‘qimachilik an‘analari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatilgan. G.A.Pugachenkova O‘rta Osiyoning eng yirik san‘atshunos va arxeolog bo‘lib, hunarmandchilik san‘atini o‘rganishga ulkan hissa qo‘shgan. Uning Rempel bilan hamkorlikda yozilgan *"Искусство Средней Азии"* (1965) asarida hunarmandchilik san‘atining barcha turlari — kulolchilik, zargarlik, to‘qimachilik, yog‘och o‘ymakorligi kompleks ravishda o‘rganilgan. Farg‘ona vodiysining hunarmandchilik an‘analari alohida bo‘lim sifatida yoritilgan. Asarning kamchiligi shundaki, tarixiy jarayon asosan arxeologik va san‘atshunoslik metodlari bilan o‘rganilgan, sotsial-iqtisodiy tahlil yetarlicha chuqurlashtirilmagan[7.368]. L.I.Rempel *"Далёкое и близкое"* (1977) asarida o‘zbek xalq san‘ati va hunarmandchiligining tarixiy ildizlari hamda uning zamonaviy shakllarini o‘rgangan. *"Искусство Среднего Востока"* (1978) asarida hunarmandchilik buyumlarining bezak naqshlari va ularning milliy o‘ziga xosligi tahlil qilingan. L.Yu.Mankovskayaning *"Типологические основы зодчества Средней Азии"* (1980) asarida hunarmandchilik va me‘morchilik o‘rtasidagi aloqalar, o‘ymakorlik va naqqoshlik an‘analari o‘rganilgan. Farg‘ona vodiysidagi naqsh an‘analarining me‘morchilik bezaklarida aks etishi tadqiqot davomida ko‘rsatilgan.

Sovet davrida O‘zbekistonlik olimlar ham hunarmandchilikni o‘rganishda muhim hissa qo‘shdilar. Bu davr tadqiqotlarining xususiyati shundaki, ular sovet mafkurasi doirasida ish yuritgan bo‘lsalar-da, milliy hunarmandchilik an‘analarini saqlab qolishga harakat qilganlar. Bu davrda S.S.Gubayeva, K.Sh.Shoniyozov, T.A.Jdanko kabi olimlar Farg‘ona vodiysi aholisi uy hunarmandchiligi, to‘qimachiligi va xalq amaliy san‘ati namunalari haqida muhim ma‘lumotlarni o‘z asarlarida keltirib o‘tishgan. Jumladan, etnograf olimi S.S.Gubayeva Farg‘ona vodiysi aholisi, etnik tarkibi, etnografik guruhlar va etnomadaniy jarayonlarini o‘rgangan olimalardan biridir. U ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Farg‘ona vodiysi aholisi tarixini etnografik jihatdan tadqiq qilgan. Uning ilmiy ishlari sovet davri doirasida yaratilgan bo‘lsada, bugungi kunda ham Farg‘ona vodiysi etnik tarixi va hunarmandchiligi bo‘yicha muhim manbalardan hisoblanadi. S.S.Gubayeva Farg‘ona vodiysidagi ayrim etnik guruhlarining an‘anaviy hunarmandchiligi haqida ham ma‘lumot bergan. Masalan, savatchilik, bo‘yrado‘zlik, to‘qimachilik, maishiy buyumlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarni etnografik jihatdan tavsiflagan. Ayniqsa, hududdagi qoraqalpoq va lo‘li etnik guruhlarining hunarmandchilikdagi o‘rni haqida qimmatli ma‘lumotlar bildirib o‘tgan. Shuningdek, yana K.Sh.Shoniyozov aynan Farg‘ona vodiysi hunarmandchiligi haqida yozilgan alohida monografiyasi yoki ilmiy asari mavjud bo‘lmasada, uning asarlarida Farg‘ona vodiysi aholisi, qarluq-qipchoq guruhlar, vodiyni etnik va madaniy an‘analari haqida ayrim ma‘lumotlar uchraydi. Albatta, bularning ichida qisman hunarmandchilik an‘analariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, K. Shoniyozov ushbu

monografiyasida o‘zbek xalqining etnik shakllanishida qipchoq komponentining o‘rni tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilingan. Asarda xalqning moddiy madaniyati, xo‘jalik faoliyati va an’anaviy hunarmandchiligi etnomadaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda yoritilgan.

Natijalar: Yuqorida ko‘rib chiqilgan sovet davri (1917–1991) tadqiqotlari quyidagi xulosa chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, sovet davri olimlari hunarmandchilikni asosan etnografik va arxeologik usullar yordamida o‘rganib, uning moddiy-texnik jihatlarini yaxshi yoritishgan. Bu jihat keyingi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qildi. Ikkinchidan, Pugachenkova, Rempel va Suxareva kabi yirik olimlar hunarmandchilikning san’atshunoslik jihatlarini chuqur tahlil qilishgan. Biroq iqtisodiy va siyosiy omillar, hunarmandchilikning jamiyat rivojidadagi roli ikkinchi o‘rinda qolgan. Uchinchidan, Farg‘ona vodiysi, xususan Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari alohida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilmagan — ular odatda umumiy O‘rta Osiyo yoki O‘zbekiston kontekstida tahlil qilingan. Bu esa mintaqaviy tadqiqotlar yetishmasligini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, sovet davri tadqiqotlari 1917–1991 yillardagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning hunarmandchilikka ta’sirini mafkuraviy nuqtai nazardan baholagan, obyektiv va mustaqil tahlil imkoniyati cheklangan. Beshinchidan, bu davrda hunarmandchilik ko‘pincha "eski" va "arxaik" hodisa sifatida tasvirlangan, uning zamonaviy rivojlanish imkoniyatlari yetarlicha ko‘rib chiqilmagan. Shu sababli, sovet davri ilmiy merosi katta ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, Farg‘ona vodiysi uchun alohida mustaqil kompleks mintaqaviy tadqiqot — xususan 1991–2022 yillar mustaqillik davri uchun — zaruriyati qolganligicha qolmoqda. Bu esa ushbu dissertatsiyaning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng (1991) milliy hunarmandchilik tarixi yangicha ilmiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. Bu davrda hunarmandchilik sovet mafkurasining "arxaik hodisa" sifatidagi bahosidan xalos bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy meros va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qayta baholandi. Tadqiqotchilar bu davrda hunarmandchilikni faqat etnografik emas, balki tarixiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham o‘rganishni boshladilar.

Muhokama: Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tarixchilar, sharqshunoslar, san’atshunoslar tarixning turli masalari qatorida hunarmandchilik tarixini o‘rganishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashib, yangi yozma va hujjatli manbalar ma’lumotlarini ilmiy muomalaga kiritdilar. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan manbalardagi ma’lumotlardan keng foydalanganligi hamda bu davr tadqiqotchilari uchun muammoni o‘rganish borasida keng imkoniyatlarning yuzaga kelganligi bilan sovet davridagi tadqiqotlardan ajralib turadi. Jumladan, “O‘zbekistonning badiiy hunarmandchiligi atlas” ham O‘zbekistonda an’anaviy hunarmandchilikning qanday rivojlanganligi borasida qisqacha tarixiy ma’lumot beradi.

Milliy hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirishda davlat tomonidan berilgan e’tibor ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Xalq

badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni[1.6] muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu farmon chiqishi bilan milliy hunarmandchilikni har qachongidanda rivojlantirishga, ommalashtirishga va milliy qadriyat sifatida keng targ'ib qilinishi boshlandi. Shuningdek, mustaqillikka erishganimizdan so'ng "Hunarmand" uyushmasining tashkil etilishi ham bu borada qilingan ishlarning davomli bo'lishini ta'minladi. Ushbu uyushma O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti 1997 yil 31 martdagi PF-1741-son Farmoni[1.7] asosida hunarmandlar maxsus tashkilot — "Hunarmand" Respublika uyushmasiga birlashtirilishi natijasida tashkil etildi. "Hunarmand" uyushmasi dastlab "Musavvir" ilmiy-ishlab chiqarish markazi huzurida tashkil etilib, uning tarkibiga kirdi. Uyushma raisi lavozimiga ko'ra "Musavvir" markazi bosh direktorining o'rinbosari hisoblanib, muassislar tomonidan uyushmaning konferensiyasi o'tkazildi, raisi saylandi va Ustavi tasdiqlandi. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida har bir hududda hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy komissiyalar tashkil etildi. Komissiyalar vazifalariga hunarmandlarga yer maydonlari va binolar ajratish, ishlab chiqarish infratuzilmasiga ulanish, hunarmandchilik mahsulotlarini sotish va eksport qilishda ko'mak berish kiritilgan. Bu esa Farg'ona vodiysi milliy hunarmandchiligi uchun ham ahamiyatli bo'ldi.

Xulosa: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy hunarmandchilik rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, bugungi kunda sohaning rivojiga xizmat qiladigan qator amaliy islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o'rin tutadi. Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo'lishi — sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz", deb ta'kidlab o'tganlar.

O'zbek milliy hunarmandchiligining o'rganilish tarixi mamlakat madaniy merosini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik davrida davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar hunarmandchilikning tiklanishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1741-son Farmoni. — 1997-yil 31-mart.
2. Azimova D.A., Shirinov T.Sh. O'zbekiston tarixi. — Toshkent: Sharq, 2019. — 512 b.
3. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1994. — 320 b.
4. Sodiqova N. O'zbek milliy hunarmandchiligi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. — 240 b.

5. Rajabov Q., Haydarov M. O‘zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XXI asr boshlari). – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 384 b.
6. Abdullayev T. Amaliy bezak san'ati tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 286 b.
7. Pugachenkova G.A. Искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1987. – 368 с.
8. Voronina V.L. Народное декоративное искусство Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1972. – 254 с.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.